

SURXONDARYO VILOYATIDA TADBIRKORLIK FAOLLIGI VA AHOLI FAROVONLIGI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

Pardayev Lochinbek

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

lochinbek_pardayev@tues.uz

ORCID 0009-0004-5306-016X

Annotatsiya - Maqolada Surxondaryo viloyatida tadbirkorlik faolligi va aholi farovonligi o'rtasidagi bog'liqlik 2015–2025-yillardagi rasmiy statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Tadbirkorlik faolligi kichik biznesning YAHMdagi ulushi, faol kichik korxona va mikrofirmalar soni, xizmatlar hajmi hamda yaratilgan qo'shilgan qiymat orqali baholandi. Farovonlikning asosiy indikatori sifatida aholi jon boshiga umumiy daromadlar olindi. Ushbu ko'rsatkich 2015-yildagi 4 560,8 ming so'mdan 2025-yilda 22 572,2 ming so'mga yetgan. Kichik biznesning YAHMdagi ulushi davr davomida 76–84% oralig'ida saqlangan. 2025-yilda kichik tadbirkorlik 49 880,9 mlrd so'mlik qo'shilgan qiymat yaratib, YAHMning 76,4%ini tashkil etgan. 2021–2025-yillarning I choraklarida xizmatlar hajmi 1 484,2 mlrd so'mdan 5 216,4 mlrd so'mga oshgan. Xizmatlar hajmi va aholi jon boshiga daromad o'rtasidagi Pearson korrelyatsiyasi $r=0,962$, $R^2=0,925$ ni tashkil etdi. Biroq nominal qatorlar va vaqt trendi sabab ushbu natija sababiy ta'sir sifatida talqin qilinmaydi. Tahlil tadbirkorlikning farovonlikka ta'sirida bandlik, daromadlar, xizmatlar bozori, investitsiya va mahalliy iqtisodiy multiplikatorlarning muhimligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: Surxondaryo, tadbirkorlik faolligi, kichik biznes, aholi farovonligi, aholi daromadlari, YAHM, bandlik, xizmatlar, korrelyatsiya, hududiy iqtisodiyot.

KIRISH


Bozor iqtisodiyotida tadbirkorlik faolligi hududiy iqtisodiy o'sish, ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarining diversifikatsiyasi va mahalliy bozorlarning kengayishiga xizmat qiluvchi asosiy institutlardan biridir. Ayniqsa demografik bosimi yuqori va mehnat resurslari tez o'sadigan hududlarda kichik biznesning yangi bandlik imkoniyatlari yaratish qobiliyati aholi farovonligi uchun katta ahamiyatga ega.

Surxondaryo viloyati iqtisodiy tuzilmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi respublika hududlari orasida muntazam yuqori bo'lib kelgan. Milliy statistika qo'mitasi SIAT ma'lumotlarida 2015–2025-yillarda kichik biznesning YAHMdagi ulushi 76,4–83,6% oralig'ida shakllangan. 2024-yilda bu ko'rsatkich 77,9%, 2025-yilda esa 76,4% bo'lgan.

2025-yil yakunlari bo'yicha viloyatda kichik tadbirkorlik tomonidan yaratilgan qo'shilgan qiymat 49 880,9 mlrd so'mni tashkil etdi. Bu 2024-yildagi 43 372,7 mlrd so'mga nisbatan nominal hisobda 15,0% ko'p. Shu davrda aholi jon boshiga umumiy daromad 19 431,5 ming so'mdan 22 572,2 ming so'mga, ya'ni 16,2%ga oshgan. Mazkur parallel dinamika tadbirkorlik va farovonlik o'rtasidagi bog'liqlikni alohida o'rganishga asos beradi.

Biroq tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi bilan farovonlik o'rtasidagi munosabatni faqat ulush ko'rsatkichiga tayangan holda baholash yetarli emas. Ulush nisbiy ko'rsatkich bo'lib, yirik korxonalar hajmining o'zgarishi natijasida ham pasayishi yoki ko'tarilishi mumkin. Masalan, 2025-yilda kichik biznesning mutlaq hajmi oshganiga qaramay uning YAHMdagi ulushi 77,9%dan 76,4%ga kamaygan. Bu yirik korxonalar ulushining tezroq o'sishi bilan izohlanadi.

Tadbirkorlik faolligidan aholi farovonligiga ta'sir mexanizmi



1-rasm. Tadbirkorlik faolligidan aholi farovonligiga ta'sir etuvchi asosiy iqtisodiy kanallar.

Farovonlik ham ko'p o'lchovli tushuncha bo'lib, daromad, bandlik, iste'mol, uy-joy sharoiti, ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiy xavfsizlik va imkoniyatlardan foydalanish kabi komponentlarni qamrab oladi. Mazkur maqolada ma'lumotlarning izchilligi va rasmiy mavjudligi sababli asosiy kvantitativ indikator sifatida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi tanlandi.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar kichik biznesni aholi turmush darajasini oshirish, oilaviy daromadlarni ko'paytirish, bandlikni kengaytirish va hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bilan bog'laydilar. Xudayarova (2025) uy xo'jaliklari daromadlarida tadbirkorlik faoliyatining rolini statistik asosda tahlil qilgan; Turotova va Abdullayev (2024) kichik va oilaviy biznesning ish o'rinlari va mahalliy ishlab chiqarishdagi ahamiyatini ko'rsatgan; Urunbayeva va Qudratova (2024) kichik tadbirkorlik bilan aholi turmush darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yoritgan.

Tadqiqotning maqsadi Surxondaryo viloyatida tadbirkorlik faolligi va aholi farovonligi dinamikasini rasmiy statistika asosida qiyosiy tahlil qilish, ular o'rtasidagi statistik bog'liqlikni ehtiyotkorlik bilan baholash va hududda farovonlikka ta'sir qiluvchi tadbirkorlik kanallarini aniqlashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadbirkorlik faolligi va aholi farovonligi o'rtasidagi bog'liqlik iqtisodiy

adabiyotlarda asosan bandlikni oshirish, uy xo'jaliklari daromadlarini diversifikatsiya qilish, mahalliy iqtisodiy faollikni kuchaytirish va yangi qo'shilgan qiymat yaratish mexanizmlari orqali izohlanadi. Mazkur yondashuvda tadbirkorlik faqat yangi korxonalar sonining ko'payishi sifatida emas, balki ishlab chiqarish, xizmatlar, bandlik va daromadlar shakllanishining muhim institutsional omili sifatida qaraladi.

O'zbekiston sharoitida tadbirkorlik va uy xo'jaliklari daromadlari o'rtasidagi munosabatni o'rgangan Xudayarova tadbirkorlik faoliyatining aholi daromadlarini shakllantirishdagi rolini alohida ta'kidlaydi. Muallif tadbirkorlikni uy xo'jaliklari daromadlarining qo'shimcha manbalarini yaratish, o'zini o'zi band qilish va iqtisodiy faollikni kengaytirish bilan bog'laydi [5]. Mazkur yondashuv Surxondaryo viloyatida tadbirkorlik faolligini aholi jon boshiga umumiy daromadlar bilan birgalikda tahlil qilish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Turopova va Abdullayev kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikning O'zbekiston iqtisodiyotidagi ahamiyatini tahlil qilib, uning ish o'rinlari yaratish, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va aholi iqtisodiy faolligini oshirishdagi rolga e'tibor qaratadilar [6]. Ushbu tadqiqot natijalari tadbirkorlikning farovonlikka ta'siri bevosita biznes egalarining daromadi bilan cheklanmasligini, balki mehnat daromadlari va mahalliy iqtisodiy aloqalar orqali boshqa uy xo'jaliklariga ham tarqalishini ko'rsatadigan nazariy yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi.

Urunbayeva va Qudratova kichik tadbirkorlikning aholi turmush darajasini oshirishdagi o'rnini o'rganib, tadbirkorlikni daromadlar va bandlikni oshirish bilan bog'laydilar [7]. Mazkur tadqiqotning Surxondaryo viloyati uchun ahamiyati shundaki, hududda kichik biznesning YAHMdagi ulushi yuqori bo'lgan sharoitda uning farovonlikka ta'sirini faqat korxonalar soni orqali emas, balki yaratilayotgan qo'shilgan qiymat, xizmatlar hajmi va aholi daromadlari bilan birgalikda baholash zarurligini ko'rsatadi.

Jalilov kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotda shakllanish jarayonini tahlil qilib, tadbirkorlikning iqtisodiy faollikni kengaytirishdagi ahamiyatini yoritadi [8]. Ushbu yondashuv tadbirkorlik subyektlari soni va iqtisodiy natijalar o'rtasidagi farqni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Ya'ni tadbirkorlik subyektlarining ko'payishi o'z-o'zidan yuqori farovonlikni kafolatlamaydi; ularning mahsuldorligi, bozor imkoniyatlari, ishlab chiqarish hajmi va qo'shilgan qiymat yaratish qobiliyati ham muhim hisoblanadi.

Norboyeva va Xasanov tadbirkorlik faoliyatini iqtisodiy o'sish bilan bog'lab, uning iqtisodiy resurslarni harakatga keltirish va yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishdagi rolini ko'rsatadilar [9]. Ushbu qarash hududiy tadbirkorlikni o'rganishda faqat mikro darajadagi daromadlar bilan cheklanmasdan, uning YAHM, investitsiya, bandlik va xizmatlar bozori kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan aloqasini ham hisobga olish lozimligini asoslaydi.

Xalqaro tadqiqotlarda ham kichik va o'rta biznesning bandlik, unumdorlik va inklyuziv iqtisodiy o'sishdagi o'рни keng o'rganilgan. OECD tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlarda kichik va o'rta biznes siyosati mahsuldorlik, bandlik va inklyuziv o'sish bilan o'zaro bog'liq holda qaraladi [11]. Bunda biznes subyektlari sonining o'zi emas, balki ularning mahsuldorligi, innovatsion faolligi, moliyaviy

resurslardan foydalanish imkoniyati va bozorlar bilan integratsiyasi uzoq muddatli iqtisodiy natijalarni belgilovchi omillar sifatida ko'riladi.

Jahon bankining O'zbekiston iqtisodiyotiga oid tadqiqotlarida xususiy sektorni rivojlantirish, ish o'rinlari yaratish va mehnat unumdorligini oshirish mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishning muhim yo'nalishlari sifatida ko'rsatiladi [10]. Mazkur yondashuv Surxondaryo viloyati uchun ham muhim bo'lib, hududiy tadbirkorlik siyosatini yangi biznes subyektlarini tashkil etish bilan birga, mavjud korxonalarining yashovchanligi, mehnat unumdorligi va yuqori qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyatlarini oshirishga yo'naltirish zarurligini ko'rsatadi.

Xalqaro mehnat tashkiloti tadqiqotlarida kichik korxonalar bandlikni ta'minlash va munosib mehnat imkoniyatlarini yaratishda muhim o'rin tutishi qayd etiladi [12]. Shu nuqtayi nazardan, tadbirkorlikning aholi farovonligiga ta'sir mexanizmini "tadbirkorlik → yangi ish o'rinlari → mehnat daromadlari → uy xo'jaliklari iste'moli va jamg'armalari" zanjiri orqali izohlash mumkin. Bunday mexanizm ayniqsa mehnat resurslari salmog'i yuqori bo'lgan hududlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili tadbirkorlik va aholi farovonligi o'rtasidagi bog'liqlik ko'p kanalli iqtisodiy jarayon ekanini ko'rsatadi. Shu sababli Surxondaryo viloyati misolida ushbu munosabatni baholashda faqat tadbirkorlik subyektlari soni yoki uning YAHMdagi ulushiga tayanish yetarli emas. Tadbirkorlikning qo'shilgan qiymat yaratishi, xizmatlar bozorini kengaytirishi, bandlikni ta'minlashi va uy xo'jaliklari daromadlarini oshirishga xizmat qilishi birgalikda tahlil qilinishi lozim. Mazkur nazariy va empirik yondashuvlar keyingi bo'limda Surxondaryo viloyatining 2015–2025-yillardagi rasmiy statistik ma'lumotlari asosida tadbirkorlik va farovonlik dinamikasini tahlil qilish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot desk-research va ikkilamchi statistik tahlil usulida bajarildi. Asosiy ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining SIAT platformasi hamda Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining yillik va choraklik press-revizlaridan olindi. Aholi jon boshiga umumiy daromadlar yillik qatori 2015–2025-yillar uchun, kichik biznesning YAHMdagi ulushi ham shu davr uchun solishtirildi.

Tadbirkorlik faolligini faqat bitta indikator bilan o'lchash metodologik jihatdan cheklangan. Shu sababli maqolada to'rtta proksi qo'llanildi: (1) kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi; (2) kichik tadbirkorlik yaratgan qo'shilgan qiymat hajmi; (3) faol kichik korxona va mikrofirmalar soni; (4) kichik biznes subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi.

Farovonlik proksisi sifatida hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi olindi. Ushbu ko'rsatkich rasmiy metodikada hudud aholisi olgan pul va natura shaklidagi daromadlar yig'indisini o'rtacha aholi soniga bo'lish orqali hisoblanadi. 2025-yil qiymati dastlabki ma'lumot sifatida berilgan.

2021–2025-yillarning yanvar–mart davrlariga oid kichik biznes xizmatlari hajmi bilan shu yillarning yillik aholi jon boshiga daromadlari o'rtasida Pearson korrelyatsiya koeffitsienti hisoblandi. Korrelyatsiya $r=0.962$, determinatsiya koeffitsienti $R^2=0.925$

bo‘ldi. Ushbu natija faqat tavsifiy ko‘rsatkichdir: nominal pul qatorlari inflyatsiya va umumiy vaqt trendi ta’sirida birga o‘sishi mumkin, shuning uchun undan sababiy xulosa chiqarilmaydi.

1-jadval.

Tadqiqotda qo‘llanilgan asosiy ko‘rsatkichlar.


Ko‘rsatkich	Tavsif
Aholi jon boshiga umumiy daromad	2015–2025; ming so‘m. Farovonlikning asosiy proksisi.
Kichik biznesning YAHMdagi ulushi	2015–2025; %. Tadbirkorlikning hududiy iqtisodiyotdagi nisbiy vazni.
Kichik biznes xizmatlari hajmi	2021–2025, I chorak; mlrd so‘m. Bozor faolligining nominal proksisi.
Faol kichik korxona va mikrofirmalar	2021–2025, 1-aprel; birlik. Tadbirkorlik bazasining sonli proksisi.
Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi hajmi	2024–2025; mlrd so‘m. Tadbirkorlik yaratgan mutlaq qo‘shilgan qiymat.

Faol kichik korxona va mikrofirmalar sonidagi 2022–2024-yillardagi pasayish ham iqtisodiy faollikning to‘g‘ridan-to‘g‘ri pasayishi sifatida talqin qilinmadi. Statistika boshqarmasi 2022-yildagi PF-113-son Farmon asosida davlat organlaridagi yuridik shaxslar bazalari xatlovdan o‘tkazilib, farqlar birxillashtirilganini qayd etadi. Demak, qatorning bir qismi ma’muriy hisobning tozalanishi bilan bog‘liq.

Adabiyotlar tahlilida tadbirkorlikning farovonlikka ta’siri uchta asosiy nazariy kanal orqali ko‘rildi: bandlik va ish haqi kanali; tadbirkorlik daromadi va uy xo‘jaligi daromadlarini diversifikatsiyalash kanali; mahalliy talab, investitsiya va multiplikativ o‘sinh kanali. Shu bilan birga, tadbirkorlikning soni emas, uning mahsuldorligi, yashovchanligi va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish qobiliyati uzoq muddatli farovonlik uchun muhimligi ta’kidlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Birinchi natija aholi daromadlarining izchil nominal o‘shidir. Surxondaryoda aholi jon boshiga umumiy daromad 2015-yilda 4 560,8 ming so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2020-yilda 10 219,6 ming so‘mga, 2025-yilda esa 22 572,2 ming so‘mga yetgan. 2021–2025-yillar oralig‘ida mazkur ko‘rsatkichning nominal o‘rtacha yillik o‘sinh sur’ati taxminan 16,0%ni tashkil etdi.



2-rasm. Surxondaryo viloyatida aholi jon boshiga umumiy daromadlar dinamikasi, 2015–2025.


Kichik biznesning YAHMdagi ulushi butun davr davomida yuqori bo'lib qolgan, lekin daromadlar singari doimiy o'suvchi trendga ega emas. Ulush 2017-yilda 83,6%ga yetgan, 2025-yilda 76,4%ni tashkil etgan.

2-jadval.

Farovonlik va kichik biznes ulushining yillik dinamikasi.

Yil	Aholi jon boshiga daromad, ming so'm	Kichik biznesning YAHMdagi ulushi, %
2015	4 560.8	77.4
2016	5 079.8	79.1
2017	6 471.5	83.6
2018	7 984.0	81.4
2019	9 372.7	79.1
2020	10 219.6	77.9
2021	12 466.0	78.0
2022	15 259.8	77.3
2023	16 806.5	76.6
2024	19 431.5	77.9
2025	22 572.2	76.4

Bu holat nisbiy ulushning farovonlik bilan oddiy chiziqli bog'lanishini kutish noto'g'ri ekanini ko'rsatadi: hududda tadbirkorlikning mutlaq hajmi o'sishi bilan bir vaqtda yirik korxonalar tezroq o'ssa, kichik biznes ulushi kamayishi mumkin.



3-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning Surxondaryo YAHMdagi ulushi, 2015–2025.


Mutlaq hajm bo'yicha esa 2025-yilda kichik tadbirkorlik 49 880,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yildagi 43 372,7 mlrd so'mga nisbatan 15,0% ko'paygan. Xuddi shu davrda aholi jon boshiga umumiy daromad 16,2%ga o'sdi. Ikki yillik parallel o'sish sababiylikni isbotlamaydi, ammo tadbirkorlik sektori iqtisodiy kengayish va uy xo'jaliklari daromadlarining bir vaqtda oshayotganini ko'rsatadi.

3-jadval.

2024–2025-yillarda tadbirkorlik va farovonlikning asosiy koʻrsatkichlari.

Koʻrsatkich	2024	2025	Oʻzgarish
Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi hajmi, mlrd soʻm	43 372,7	49 880,9	+15,0% nominal
Kichik biznesning YAHMdagi ulushi, %	77,9	76,4	–1,5 f.p.
Aholi jon boshiga umumiy daromad, ming soʻm	19 431,5	22 572,2	+16,2% nominal
Aholi jon boshiga YAHM, ming soʻm	19 425,6	22 223,4	+4,2% real

Xizmatlar sohasi kichik biznesning uy xoʻjaliklari farovonligi bilan eng bevosita bogʻliq yoʻnalishlaridan biridir. 2021-yilning yanvar–martida kichik biznes subyektlari 1 484,2 mlrd soʻmlik xizmat koʻrsatgan boʻlsa, 2025-yilning shu davrida hajm 5 216,4 mlrd soʻmga yetgan. Toʻrt yil uchun nominal oʻrtacha yillik oʻsish surʼati taxminan 36.9%ni tashkil etdi.



4-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan koʻrsatilgan xizmatlar hajmi, 2021–2025-yillar I choragi.


2021–2025-yillar boʻyicha kichik biznes xizmatlari hajmi va aholi jon boshiga umumiy daromadlar oʻrtasida kuchli musbat tavsifiy korrelyatsiya kuzatildi: $r=0.962$, $R^2=0.925$. Oddiy chiziqli regressiya daromadning xizmatlar hajmiga birga harakatlanishini koʻrsatadi.

4-jadval.

2021–2025-yillarda tadbirkorlik faolligi va daromad indikatorlari.

Yil	Xizmatlar hajmi, mlrd soʻm (I chorak)	Aholi jon boshiga daromad, ming soʻm	Faol kichik korxona va mikrofirmalar, birlik
2021	1 484.2	12 466.0	22 473
2022	1 893.9	15 259.8	25 174
2023	2 230.6	16 806.5	21 526
2024	4 318.7	19 431.5	19 735
2025	5 216.4	22 572.2	19 775

Biroq ikki ko‘rsatkich ham joriy narxlarda va vaqt bo‘yicha trendga ega. Inflyatsiya, aholining umumiy iqtisodiy o‘shishi va boshqa makroiqtisodiy omillar natijani kuchaytirishi mumkin; shu sababli bu korrelyatsiya tadbirkorlik xizmatlari daromad o‘shishining 92,5%ini “sabab bo‘ladi” degan ma’noni anglatmaydi.



5-rasm. Kichik biznes xizmatlari hajmi va aholi jon boshiga daromadning nominal ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi tavsifiy bog‘liqlik.

Faol kichik korxona va mikrofirmalar soni 2022-yilda 25 174 taga yetganidan keyin 2023–2024-yillarda pasayib, 2025-yil 1-aprelda 19 775 tani tashkil etgan.

5-jadval.

Tadbirkorlik faolligi va aholi farovonligi o‘rtasidagi asosiy iqtisodiy mexanizmlar.

Bog‘liqlik kanali	Iqtisodiy mexanizm va Surxondaryo uchun amaliy mazmun
Bandlik	Yangi va barqaror korxonalar ish haqi hamda mehnat daromadlarini oshiradi; mehnat resurslari yuqori bo‘lgan tumanlarda ish o‘rinlari yaratish muhim.
Biznes daromadi	YTT va oilaviy biznes kengayishi uy xo‘jaligi daromadlarini diversifikatsiya qiladi hamda o‘zini o‘zi band qilish imkonini kuchaytiradi.
Xizmatlar bozori	Savdo, transport, turizm va servis hajmi o‘shishi mahalliy talab va xizmatlardan foydalanishni kengaytiradi; 2021–2025 I chorak xizmatlar hajmi 3,5 baravar oshgan.
Mahalliy multiplikator	Mahalliy xarid va kooperatsiya daromadning hudud ichida aylanishini kuchaytiradi; mikrofirmalar va mahalliy yetkazib beruvchilar zanjiri kengayadi.
Soliq va investitsiya	Rasmiy biznes bazasi va kapital qo‘yilmalar infratuzilma hamda jamoat xizmatlari uchun resurs yaratadi; rasmiylashtirish va mahsuldorlikni oshirish muhim.

Bu qatorni farovonlik bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri regressiya qilish maqsadga muvofiq emas, chunki rasmiy manbada yuridik shaxslar bazalarining xatlov va birxillashtirish jarayoni ma’lumotlarning qiyosiylikiga ta’sir qilgani ko‘rsatilgan. Shunday qilib, korxonalar sonining pasayishi iqtisodiy faollikning shu darajada pasayganini anglatmaydi.

MUHOKAMA

Surxondaryo misolida tadbirkorlikning farovonlik bilan bog'liqligi nisbiy ulushdan ko'ra mutlaq iqtisodiy faollik va mahsuldorlik orqali yaxshiroq namoyon bo'ladi. Kichik biznesning YAHMdagi ulushi allaqachon juda yuqori bo'lgani sababli uning kelgusida yana oshishi farovonlikning zarur sharti emas. Muhimroq masala mavjud tadbirkorlik bazasining real qiymat yaratishi, barqaror ish o'rinlari yaratishi va yuqori daromadli faoliyatlarga o'tishidir.

2025-yilda kichik biznesning mutlaq qo'shilgan qiymati 15%ga oshgan bo'lsa-da, YAHMdagi ulushi 1,5 foiz punktga kamaygan. Bu "ulush pasaydi — tadbirkorlik yomonlashdi" degan xulosaning noto'g'ri bo'lishini yaqqol ko'rsatadi. Hududiy siyosatda mutlaq hajm, real o'sish, mehnat unumdorligi, yangi bizneslarning yashovchanligi va ish haqi kabi indikatorlar birgalikda kuzatilishi kerak.

Daromadlarning 2015–2025-yillardagi tez nominal o'sishi ijobiy tendensiyadir, ammo farovonlikni baholashda real xarid qobiliyati ham muhim. Nominal daromad o'sishining bir qismi narxlar o'sishi bilan izohlanadi. Shuning uchun keyingi ekonometrik ishlarda real daromad indeksi yoki iste'mol narxlari indeksiga deflyatsiya qilingan qatorlardan foydalanish kerak.

Xizmatlar sohasidagi kichik biznes hajmi bilan daromadlar o'rtasidagi yuqori korrelyatsiya iqtisodiy jihatdan mantiqiy: xizmatlar sohasi ko'p hollarda mehnat talabchan, kichik kapital bilan boshlanishi mumkin va hududiy talabga tez javob beradi. Savdo, transport, turizm, ovqatlanish, maishiy xizmatlar va raqamli servislar kengayishi bevosita ish o'rinlari va tadbirkorlik daromadlarini shakllantiradi.

Shunga qaramay, $r=0,962$ korrelyatsiyani sababiy koeffitsient sifatida talqin qilish xato bo'ladi. Ikkala qatorning ham vaqt trendi va inflyatsiya ta'siri mavjud. Kuchliroq empirik tekshiruv uchun tumanlar kesimidagi panel ma'lumotlar, real ko'rsatkichlar, aholiga nisbatan biznes zichligi, o'rtacha ish haqi, kambag'allik darajasi va bandlik ko'rsatkichlarini bir modelga kiritish lozim.

Faol korxonalar soni qatoridagi ma'muriy uzilish yana bir metodologik muammodir. 2022-yildan keyingi registr tozalash jarayoni son ko'rsatkichlarining iqtisodiy mazmunini qisman o'zgartiradi. Shu sababli "korxonalar soni"ni yagona tadbirkorlik indeksi sifatida ishlatish o'rniga aylanma, qo'shilgan qiymat, xizmatlar hajmi, eksport, investitsiya va biznesning yashovchanlik darajasi bilan to'ldirish kerak.

Surxondaryoda farovonlikni oshirish uchun tadbirkorlik siyosati miqdordan sifatga o'tishi kerak. Yangi korxona tashkil etish bilan birga 3–5 yil yashab qoladigan, mehnat unumdorligi yuqori, bozori viloyatdan tashqariga chiqadigan va mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlaydigan bizneslarning ulushini oshirish muhim.

Xizmatlar va savdo kichik biznesda katta ulushga ega bo'lsa-da, daromadlarning barqaror o'sishi uchun ishlab chiqarish, agroprocessing, turizm, logistika, IT va professional xizmatlarda yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi segmentlarni kengaytirish lozim. Ayniqsa Surxondaryoning qishloq xo'jaligi, chegaraoldi savdosi va turizm salohiyati tadbirkorlik multiplikatorini kuchaytirishi mumkin.

Uy xo'jaligi farovonligiga tadbirkorlikning ta'siri biznes egalarining daromadi bilan cheklanmaydi. Tadbirkorlik yangi ishchi yollaganda, mahalliy yetkazib beruvchidan xarid qilganda, transport va xizmatlardan foydalanganda, soliq to'laganda

va yangi talab yaratganda daromad boshqa uy xo'jaliklariga ham tarqaladi.

Kelgusi ilmiy tadqiqot uchun eng kuchli dizayn tumanlar kesimida 5–10 yillik panel ma'lumot tuzishdir. Bog'liq o'zgaruvchi sifatida real aholi jon boshiga daromad yoki kambag'allik darajasi, asosiy izohlovchi o'zgaruvchilar sifatida 1000 aholiga kichik bizneslar soni, real kichik biznes qo'shilgan qiymati, yangi korxonalar yashovchanligi, biznes kreditlari va xizmatlar hajmi olinishi mumkin. Fixed-effects modeli hududga xos o'zgarmas omillarni nazorat qilish imkonini beradi.

XULOSA

Surxondaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hududiy iqtisodiyotning juda katta qismini tashkil etadi. 2025-yilda kichik tadbirkorlik YAHMning 76,4%ini shakllantirib, 49 880,9 mlrd so'mlik qo'shilgan qiymat yaratgan.

2015–2025-yillarda aholi jon boshiga umumiy daromad 4 560,8 ming so'mdan 22 572,2 ming so'mga oshgan. Ushbu davrda kichik biznesning YAHMdagi ulushi yuqori, ammo nisbatan barqaror bo'lib qolgan; shu sababli farovonlikni nisbiy ulushdan ko'ra tadbirkorlikning mutlaq hajmi va mahsuldorligi bilan bog'lash ilmiy jihatdan maqsadga muvofiqroq.

2021–2025-yillarda kichik biznes xizmatlari hajmi va aholi jon boshiga nominal daromadlar bir yo'nalishda keskin o'sgan. Ular o'rtasidagi $r=0,962$ korrelyatsiya kuchli tavsifiy bog'liqlikni ko'rsatadi, biroq vaqt trendi va inflyatsiya sababli bu natija sababiy effekt sifatida talqin qilinmasligi kerak.

Faol kichik korxonalar soni bo'yicha qator registrlarni birxillashtirishdan ta'sirlangan. Demak, hududiy tadbirkorlik siyosati natijasini baholashda faqat korxonalar soni emas, balki qo'shilgan qiymat, real savdo/xizmat hajmi, biznes yashovchanligi, bandlik va mehnat unumdorligi kabi indikatorlar qo'llanishi zarur.

Aholi farovonligini oshirish uchun Surxondaryoda tadbirkorlikni ko'paytirishdan tashqari uning sifatini oshirish — yuqori qo'shilgan qiymatli ishlab chiqarish, agroprocessing, logistika, turizm, raqamli va professional xizmatlarni rivojlantirish, bizneslarning bozorga chiqishi va uzoq muddat yashovchanligini ta'minlash ustuvor bo'lishi kerak.

Kelgusida real narxlardagi va tumanlar kesimidagi panel ma'lumotlar asosida ekonometrik model qurilishi tadbirkorlik faolligining daromad, bandlik va kambag'allikka mustaqil ta'sirini ancha aniq baholash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2026). Aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi (hududlar kesimida), 2010–2025. SIAT statistik ma'lumotlar bazasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2026). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulot (YAHM)dagi ulushi, 2015–2025. SIAT statistik ma'lumotlar bazasi.
3. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi. (2026). Surxondaryo viloyatida 2025-yil yanvar–dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulotni ishlab chiqarish. Press-reliz.

4. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi. (2025). Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari: 2025-yil yanvar–mart. Press-reliz.
5. Xudayarova, Z. Y. (2025). Tadbirkorlik faoliyatining uy xo'jaliklari daromadlarini oshirishdagi o'rni va ahamiyati. Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук, 5(11), 75–78. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17510486>
6. Turopova, N., & Abdullayev, K. (2024). O'zbekistonda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik. Journal of Universal Science Research, 123–126. <https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.universal-scientific-research.58671>
7. Urunbayeva, Y. P., & Qudratova, Z. M. (2024). Aholi turmush darajasini oshirishda kichik tadbirkorlikning o'rni. PEDAGOGS International Research Journal, 56(1), 59–63.
8. Jalilov, Y. E. o'g'li. (2025). Iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning shakllanishi. ACUMEN: International Journal of Multidisciplinary Research, 2(6), 245–249. <https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.aijmr.109133>
9. Norboyeva, D., & Xasanov, Sh. (2025). Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda tadbirkorlik faoliyatining roli. Ilmiy axborot byulleteni. <https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.ifx.130469>
10. World Bank. (2024). Uzbekistan country economic update: Private sector development, jobs, and productivity. World Bank Group.
11. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2023). SME and entrepreneurship policy frameworks: Productivity, employment and inclusive growth. OECD Publishing.
12. International Labour Organization. (2023). Small enterprises, employment and decent work: Policy perspectives. International Labour Organization.